


2019-yilning yanvar-oktabr oylarida Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 3 trln. 427,6 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 107,9 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoat - 9,4 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash - 5,9 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish - 4,2 % ga o'sishi hisoblanadi. Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (92,1 %) pasaydi.

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash (o'sish sur'ati - 105,9 foiz)
- Ishlab chiqaradigan sanoat (o'sish sur'ati - 109,4 foiz)
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish sur'ati - 92,1 foiz)
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish (o'sish sur'ati - 104,2 foiz)

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 189,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,5 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan chaqiq tosh - 1,8 martaga, osh tuzi - 1,5 martaga, ko'mir qazib olish - 1,3 martaga ga oshdi, xom neft (97,2 %) pasaygan.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar- oktabrida ishlab chiqarilgan	Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019-yil yanvar- oktabrida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---	---	---	-------------------------

Ko'mir, ming t.

145,6



198,7

136,5



Neft, ming t.

71,0



69,0

97,2



2018-yil yanvar- oktabrida ishlab chiqarilgan	Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019-yil yanvar- oktabrida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	--	--	----------------------------------

Osh tuzi, ming t.

5,1



7,7

152,0



Qum, ming t.

31,0



40,6

131,1



Chaqiq tosh, ming t.

33,2






61,9

186,3



Neft qazib olish, ming t.




Ko'mir qazib olish, ming t.**Chaqiq tosh qazib olish, ming t.****Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).**

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 trln. 992,3 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 87,3 % ini tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,1 % ni (2018-yil yanvar-oktabr oylarida - 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,4 % ni (0,3 %), o'rta-quyi texnologiyali - 24,9 % (23,6 %) ni va quyi texnologiyali - 61,9 % (62,8 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi

2019 yil yanvar-oktabr



2018 yil yanvar-oktabr



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasi - 6,9 % (2018-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish 112,5 %) ni, to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 38,2 % (113,5 %) ni, yog`och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog`oz va qog`oz mahsulotlari va mebel ishlab chiqarish - 3,2 % (104,1 %) ni, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 29,1 % (103,7 %) ni, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 0,4 % (101,4 %) ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda qurilish uchun qorishmalar va aralashmalar - 4,3 martaga, quyish uchun tayyor beton - 1,5 martaga, osh tuzi 1,5 martaga, un - 15,0 % ga, neft bitumi - 2,8 % ga, don ekinlarini qayta ishslashdan hosil bo'lgan kepak, chiqit va boshqa chiqindilar - 14,5 % ga oshdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018-yil yanvar-oktabrida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-oktabrida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Paxta tolasi, ming t.			
49,6		9,7	19,6 ↓
Tozalangan kungaboqar yoki masxar yog'i, ming t.			
0,0		206,0	- ↑
Un, ming t.			
82,6		95,2	115,3 ↑
Aroq, ming l.			
1507,8		1151,3	76,4 ↓
Dizel yoqilg'isi, ming t.			
9,9		8,4	84,8 ↓



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 190,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,6 % ni) tashkil etdi.


2019-yilning yanvar-oktabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida gazsimon yoqilg'l ishlab chiqarish va taqsimlash o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,9 foizga oshganligi kuzatildi. Elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash (87,8 %) kamaydi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar-oktabrida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-oktabrida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	---	--	-------------------

Elektroenergiya, mln.kVt/s

0,0



2,5

-



Issiqlik energiyasi, ming Gkal

57,2



51,8

90,6



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 55,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar 1,5 martaga, boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar - 63,3 % ga, xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 58,3 % ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari - 25,8 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 16,2 % ga, elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar 19,1 % ga oshganligi, tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo (ikkilamchi xom ashyo materiallari) (76,0 %) kamayganligi kuzatildi.

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018-yil yanvar- oktabrida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar- oktabrida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	--	--	----------------------

Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, ming tonna

11,8



9,0

76,0

**Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish
bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm**

2,9



3,4


116,2



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1296,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 8,0 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 37,8 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sishi sur'ati



2018-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 45,4 % dan 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida 50,8 % ga oshdi, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 54,6 % dan 49,2 % ga pasayganligi kuzatildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 4,5 % ni (2018 yil yanvar-oktabr oylarida 7,0 %) tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida iste'mol tovarlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**


	Mlrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yil yanvar-oktabrga nisbatan o'sish, %
Surxondaryo viloyati	1 296,3	100,0	108,0
Termiz sh.	233,0	18,1	105,8
tumanlar:			
Angor	44,3	3,4	106,0
Boysun	41,9	3,2	107,3
Denov	263,3	20,3	104,4
Jarqo'rg'on	98,1	7,6	106,5
Qumqo'rg'on	48,6	3,7	107,8
Qiziriq	35,6	2,7	112,6
Muzrabot	27,5	2,1	107,8
Oltinsoy	52,5	4,0	113,0
Sariosiyo	71,3	5,5	106,3
Termiz	86,4	6,7	105,2
Uzun	47,4	3,7	107,2
Sherobod	76,4	5,9	116,1
Sho'rchi	170,1	13,1	115,6

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 657,8 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 19,2 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning barchasi ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) korxonalar tomonidan amalga oshirildi.

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Termiz shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 19,6 %), Jarqo'rg'on (22,2 %), Denov (12,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi

	Mlrd.so'm	2018 yil yanvar-oktabrga nisbatan o'sish, %
--	-----------	---


Surxondaryo viloyati	3 427,6	107,9
-----------------------------	----------------	--------------

Termiz sh.	670,3	117,6
-------------------	--------------	--------------


tumanlar:

Angor	93,5	104,4
Boysun	63,2	107,0
Denov	430,5	107,5
Jarqo'rg'on	760,0	110,9
Qumqo'rg'on	159,8	101,1
Qiziriq	75,9	92,9
Muzrabot	64,5	104,5
Oltinsoy	69,4	107,6
Sariosiyo	269,1	105,7
Termiz	117,1	103,3
Uzun	98,1	93,6
Sherobod	251,1	256,9
Sho'rchi	305,1	98,0

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi**




Surxondaryo viloyati ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, %



Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora tadbirlar natijasida, Qumqo'rg'on (2018-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 101,1 %), Sherobod (256,9 %), Jarqo'rgon (110,9 %), Denov (107,5 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada fizik hajm indeksi oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Sherobod (2018-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 116,1 %), Sho'rchi (115,6 %), Oltinsoy (113,0 %), Qiziriq (112,6 %) tumanlarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o'sishi ko'rsatkichlari



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Termiz shahrida (4606,2 ming so'm), Jarqo'rgon (3537,2 ming so'm), Sho'rchi (1486,4 ming so'm), Sariosiyo (1323,1 ming so'm) va Sherobod (1319,0 ming so'm) tumanlarida ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 500,3 ming so'm bo'lgan holda, Termiz shahrida - 1601,2 ming so'mni, Sho'rchi tumanida - 828,6 ming so'mni, Termiz tumanida - 801,7 ming so'mni va Denov tumanida - 694,8 ming so'mni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, ming so'm


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol tovarlari
Surxondaryo viloyati	1322,9	500,3
Termiz sh.	4606,2	1601,2
tumanlar:		
Angor	715,9	339,5
Boysun	533,9	354,2
Denov	1136,1	694,8
Jarqo'rg'on	3537,2	456,4
Qumqo'rg'on	665,4	202,2
Qiziriq	443,9	208,2
Muzrabot	462,5	197,2
Oltinsoy	399,8	302,2
Sariosiyo	1323,1	350,8
Termiz	1086,4	801,7
Uzun	571,1	275,7
Sherobod	1319,0	401,0
Sho'rchi	1486,4	828,6

Shu bilan birga, iste'mol tovarlarining eng katta ulushi Denov tumaniga (viloyat iste'mol tovarlarining 20,3 %), Termiz shahriga (18,0 %) va Sho'rchi (13,1 %) tumaniga to'g'ri keldi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Hisobot davrida kichik tadbirdorlik sub'ektlari tomonidan 1823,5 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 53,2 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirdorlik sub'ektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Oltinsoy, Boysun (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Uzun (98,8 %), Qiziriq (92,3 %), Termiz (89,5 %) va Angor (81,0 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Sherobod (29,2 %), Jarqo'rg'on (36,2 %), Sho'rchi (40,4 %) tumanlari va Termiz shahrida (36,2 %) kuzatildi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.


Bugungi kunda viloyatda 2586 ta korxona faoliyat yuritmoqda, shundan 556 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 21,5 %) Termiz shahriga va 296 tasi (11,4 %) Denov tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019-yil 1 noyabr holatiga)



2019-yil yanvar-oktabr oylarida viloyatda 835 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 19,5 foizi Termiz shahri, 13,9 foizi Denov tumaniga to'g'ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2019-yil 1 noyabr holatiga)**



Sanoat statistikasi bo'limi
Aloqa telefoni: (76) 223-07-24